

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI**

**60910300 - “PEDIATRIYA ISHI” bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining  
MALAKA TALABLARI**

**Toshkent - 2021**

## ISHLAB CHIQLIGAN

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

## TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Tibbiyot va farmatsevtika uzluksiz kasbiy ta'lim muassasalararo Muvofiqlashtiruvchi kengash yig'ilishida ma'qullangan.

2021 yil "16" avgustdagi 4 - sonli bayonnoma.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining

2021 yil «31» *avgust* dagi *777* - sonli buyrug'ining \_\_\_\_ -sonli ilovasi bilan tasdiqlangan.



## JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

Mazkur malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasiga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi xududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

| T/r    |   | bet |
|--------|---|-----|
| 1.     | <b>60910300 - <i>Pediatriya ishi</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tasnifi.....</b>  | 4   |
| 1.1    | Qo'llanish sohasi.....  | 4   |
| 1.1.1. | <b>60910300 - <i>Pediatriya ishi</i> ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanishi.....</b>   | 4   |
| 1.1.2. | Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari.....   | 4   |
| 1.2.   | <b>60910300 - <i>Pediatriya ishi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....</b>                      | 4   |
| 1.2.1  | <b>60910300 - <i>Pediatriya ishi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari .....</b>                       | 4   |
| 1.2.2  | <b>60910300 - <i>Pediatriya ishi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining ob'ektlari.....</b>                      | 5   |
| 1.2.3. | <b>60910300 - <i>Pediatriya ishi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining turlari.....</b>                         | 5   |
| 1.2.4. | <b>60910300 - <i>Pediatriya ishi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy vazifalari.....</b>                                    | 6   |
| 2.     | <b>60910300 - <i>Pediatriya ishi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar .....</b> | 7   |
| 2.1    | Umumiy kompetensiyalar.....   | 7   |
| 2.2.   | Kasbiy kompetensiyalar.....   | 7   |
|        | Bibliografik ma'lumotlar.....   | 9   |
|        | Kelishuv varaqasi.....  | 10  |

## **1. 60910300- *Pediatriya ishi* bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tasnifi**

**60910300 - *Pediatriya ishi*** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi shaklda amalga oshiriladi. Ushbu ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'qitish kredit modul tizimi asosida tashkil qilinadi.

O'quv reja va modul dasturini o'zlashtirishning me'yoriy muddati 6 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

**1.1.1. 60910300 - *Pediatriya ishi*** ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavrlar tayyorlash o'quv reja va modul dasturlarining o'zlashtirilishini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

### **1.1.2. Malaka talabning asosiy foydalanuvchilari:**

– mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda o'quv reja va fan dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas'ul oliy ta'lim muassasalarining professor - o'qituvchilari;

– ta'lim yo'nalishining o'quv reja va modul dasturlarini o'zlashtirish bo'yicha o'quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi barcha xodimlari va talabalari;

– o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari);

– bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya va imtihon komissiyalari;

– oliy ta'lim muassasasini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

– oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;

– ta'lim yo'nalishini ixtiyoriy tanlash huquqiga ega bo'lgan abituriyentlar va boshqa manfaatdorlar.

**1.2. 60910300 - *Pediatriya ishi* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi**

**1.2.1. 60910300 - *Pediatriya ishi* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:**

**60910300 - *Pediatriya ishi*** bakalavriat ta'lim yo'nalishi "**Sog'likni saqlash**" ta'lim sohasiga oid yo'nalishi bo'lib, u bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari davlat va nodavlat korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, davlat boshqaruv organlarida bolalar sog'ligini saklash, mustaxkamlash, bolalikdagi kasalliklariing oldini olish va davolash bo'yicha kompleks masalalarni echish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari, ilmiy-tadqiqot markazlari, ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtirok etishni o'z ichiga oladi.

*Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat sohalarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.*

### **1.2.2. 60910300 - Pediatriya ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:**

– sog'liqni saqlash tizimidagi jarayonlar, sog'liqni saqlash tizimiga tegishli dasturlar, standartlar, ilmiy maqolalar, tezislar, ilmiy-tadqiqot ishlari, me'yoriy hujjatlar, ma'lumotnomalar, hisobotlar;

– tibbiyot asbob-uskunalari, dori vositalari, muolajalar, resurslar, vositalar, usul va uslublar majmuasi;

– jamiyat, aholi, oila, bemorlar, tibbiy yordamga muhtoj qariyalar, kattalar va bolalar, ayollar va erkaklar;

– ilmiy-tadqiqot jarayoni.

*Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat ob'ektlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.*

### **1.2.3. 60910300 - Pediatriya ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari**

– tibbiy-profilaktik;

– tezkor va shoshilinch tibbiy yordam;

– tashhishlash va davolash;

– rehabilitatsiya;

– tibbiy-ijtimoiy;

– tashkiliy- boshkaruv;

– ilmiy-tadqiqot.

*Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat turlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.*

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgandan so'ng professional ta'lim muassasalarida maxsus fanlarni o'qitishi mumkin.

Shuningdek, o'rnatilgan tartibda mustaqil tadqiqotchilik asosida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishi mumkin.

### **1.2.4. 60910300 - Pediatriya ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.**

60910300 - Pediatriya ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavriyat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

#### **Tibbiy - profilaktik faoliyatida:**

– aholi orasida sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish;

– sog'liqni saqlash tizimining birlamchi bo'g'inida birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi profilaktika chora-tadbirlarini ishlab chiqish;

– aholi orasida keng tarqalgan kasalliklarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;



– tibbiy-profilaktika faoliyatida ilg‘or, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish.

**Tezkor va shoshilinch tibbiy yordam faoliyatida:**

- shoshilinch holatlarni o‘z vaktida aniqlash;
- kasalxonagacha bo‘lgan tez tibbiy yordamni ko‘rsatish;
- ko‘rsatmaga ko‘ra kasalxonaga yuborish.

**Tashhishlash va davolash faoliyatida:**

- aholi orasida kasalliklarni erta tashhishlash;
- umumiy amaliyot shifokori faoliyatida zamonaviy tashhishlash usullaridan foydalanish;
- keng tarqalgan kasalliklarni zamonaviy usullardan foydalangan holda to‘g‘ri davolash;
- bemorlarni ko‘rsatmaga ko‘ra tor mutaxassislar bilan birgalikda olib borish va davolash;
- o‘z faoliyatida dalillarga asoslangan tibbiyot standartlaridan foydalanish.

**Reabilitasiya faoliyatida:**

- kasalliklar bo‘yicha reabilitasiya chora tadbirlarini o‘tkazishga ko‘rsatma va qarshi ko‘rsatmalarni, muddatlarini to‘g‘ri aniqlash;
- reabilitasiya chora-tadbirlarini to‘liq hajmda amalga oshirish;
- bemorlar o‘rtasida reabilitasiya o‘tkazishda zamonaviy usullardan foydalanish.

**Tibbiy-ijtimoiy faoliyatida:**

- ijtimoiy soha himoya organlari va rahm-shafqat xizmatlari bilan hamkorlikda tibbiy-ijtimoiy xizmat turlarini tashkillashtirish va xizmat ko‘rsatish;
- aholi o‘rtasida jismoniy, tibbiy-ijtimoiy va psixologik nufuzni tiklash va rivojlantirish.

**Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

- sog‘liqni saqlash tizimining birlamchi bo‘g‘inidagi davolash - profilaktika muassasalarida ishni tashkillashtirish va boshqarish;
- tibbiyot sohasidagi boshqaruvni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalariga mos tarzda takomillashtirish;
- aholi sog‘ligi holatining asosiy ko‘rsatkichlarini rejalashtirish, tahlil qilish va hisobot tayyorlash.

**Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

- yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini tahlil qila olish;
- eksperimental tadqiqotlarni o‘tkazishda ishtirok etish;
- o‘tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo‘yicha ilmiy sharhlarni tayyorlash va bibliografiyalarni tuzish;
- ilmiy seminarlar, ilmiy-amaliy konferensiyalar ishida ishtirok etish;
- ilmiy-tibbiy jurnallarga maqolalarni tayyorlash.

## **2. 60910300 -Pediatriya ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetenstiyalariga qo'yiladigan talablar**

### **2.1. Umumiy kompetenstiyalar:**

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasbiy faoliyatida foydalana olish;
- ahborot texnologiyalarni kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qaror qabul kila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida ilmiy tassavvur hamda e'tiqodga ega bo'lish.

### **2.2. Kasbiy kompetenstiyalar:**

- kasbiy faoliyatida axloqiy va deontologik tamoyillarni amalga oshirishni bilish;
- tibbiy hujjatlarni yuritish qoidalarini bilish;
- kasbiy muammolarni hal etish uchun inson organizmidagi morfofunkstional, fiziologik holatlarni va patologik jarayonlarni baholashni bilish;
- tibbiy yordam ko'rsatishda ko'zda tutilgan tibbiy asbob-uskunalaridan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- bolalar va katta yoshdagi bemorlar salomatligini saqlash va mustahkamlashda, shu jumladan sog'lom turmush tarzini shakllanirishda, kasalliklar paydo bo'lishi va (yoki) tarqalishining oldini olishda, ularni erta tashhislashga, sabablari va sharoitlarini aniqlashga qaratilgan bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish, ularning paydo bo'lishi va rivojlanishi, shuningdek atrof-muhit omillarining bolalar va kattalar sog'ligiga zararli ta'sirini bartaraf etishga tayyor bo'lish;
- profilaktik tibbiy ko'riklarni o'tkazish, tibbiy ko'rikdan o'tkazish, sog'lom bolalar va kattalar surunkali kasalliklarga chalingan bemorlarni dispanser kuzatuidan o'tkazishga tayyor bo'lish;
- epidemiyaga qarshi tadbirlarni o'tkazish, radiastiya holati yomolashgan, tabiiy ofatlar va boshqa favqulodda vaziyatlarda, o'ta xavfli yuqumli kasalliklar markazlarida aholini himoya qilishni tashkil etish;
- bolalar va kattalar salomatligi ko'rsatkichlari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash va tibbiy-statistik tahlil qilish uchun ijtimoiy va gigienik usullardan foydalanish;
- holatni aniqlash yoki kasallikning mavjudligi yoki yoqligini aniqlash uchun bemorlarning shikoyatlarini, anamnezidagi ma'lumotlarni, tekshiruv

natijalarini, laboratoriya, instrumental, patologik va boshqa tadqiqotlarni yig'ish va tahlil qilish;

- bemorlarda Xalqaro statistik tasnifi (43 - Jahon sog'liqni saqlash assambleyasi tomonidan qabul qilingan, X- qayta ko'rish, Jeneva, 1989) va tegishli sog'liq muammolariga muvofiq asosiy patologik holatlarni, kasallik belgilarini, sindromlarini, nozologik shakllarini aniqlash;
- vaqtincha mehnatga layoqatsizlik tekshiruvini o'tkazishda, tibbiy-ijtimoiy ekspertizani o'tkazishda ishtirok etish, odamning biologik o'limini aniqlash;
- turli nazologik shakllari bo'lgan bemorlarni boshqarish taktikasini aniqlash;
- ambulatoriya sharoitida va kunduzgi stasionarda turli nozologik shakllari bo'lgan bemorlarni boshqarish va davolash;
- to'satdan o'tkir kasalliklarga chalingan, bemorning hayotiga tahdid bilan birga kelmaydigan va shoshilinch tibbiy yordam talab etmaydigan surunkali kasalliklarning kuchaygan holatlarda birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish;
- shoshilinch tibbiy aralashuvni talab qiladigan sharoitda bo'lgan bemorlarga shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatishda ishtirok etish;
- fiziologik homiladorlikni tug'ruq jarayonini o'tkazish;
- favqulodda vaziyatlarda tibbiy yordam ko'rsatishda, shu jumladan tibbiy evakuasiya qilishda ishtirok etish;
- tibbiy reabilitasiya va sanator-kurort davolanishga muhtoj bemorlarda tabiiy davolovchi omillar, dori-darmon, dorivor bo'lmagan terapiya va boshqa usullardan foydalanish zarurligini aniqlash;
- bolalar va ularning ota-onalariga( qonuniy vakillariga), kattalarga sog'liqni saqlashning asosiy gigienik tadbirlarini, sog'liqni saqlash va mustahkamlashga, kasallikning oldini olishga hissa qo'shadigan asosiy fiziologik ko'rsatkichlarni o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini o'rgatish;
- asosiy tibbiy–statistik ko'rsatkichlardan foydalangan holda bemorlarga tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini baholashda ishtirok etish;
- tibbiy ma'lumotlarni tahlil qilish va ommaviy dalillarga asoslangan tibbiyotga asoslangan ravishda namoyish etish;
- ilmiy tadqiqotlarda ishtirok etish;
- fuqarolarning sog'ligini muhofaza qilishga qaratilgan yangi usul va uslublarni amalga oshirishda ishtirok etish.





## Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OXS 01.040.01

---

### **Tayanch so'zlar:**

Pediatriya ishi, kasbiy faoliyat turi, kompetenstiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat soxasi, bakalavrning asosiy ta'lim dasturi (bakalavr dasturi), sog'liqni saqlash tizimi, klinika, laboratoriya, amaliy ko'nikmalar, kasallik, davolash muassasalari, profilaktika, diagnostika, etiologiya, patogenez, morfologiya, davolash usullari.

**KELISHUV VARAG'I  
ISHLAB CHIQLDI:**

**Toshkent pediatriya tibbiyot instituti**

rektori  B.T.Daminov


2021 yil « 25 » 07



M.o'


**KELISHILDI:**

Tibbiy ta'limni rivojlantirish markazi  
direktori

 N.R.Yangiyeva  
2021 yil « 5 » 08

M.o'.

Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya  
ilmiy-amaliy  
tibbiyot markazi direktori

 D.I.Axmedova  
2021 yil « 15 » 08




M.o'

Tibbiyot va farmastevtika oliy ta'lim  
muassasalari Rektorlar rayosati raisi

 B.T.Daminov  
2021 yil « 25 » 07

M.o'.

Fan va ta'lim boshqarmasi boshlig'i

 A.T.Maxmudov  
2021 yil « 28 » 08

M.o'.